

Nemischa gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qilishning o‘ziga xos xususiyatlari

Xoliyarov Lutfulla Tashkuvatovich
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Roman-german tillari tarjimashunosligi kafedrasini mudiri

Nemis tilli tarjimashunoslikda *tarjima* terminiga nisbatan *Übersetzung* va *Dolmetschen* so‘zlari ishlatiladi. Ularning birinchisi umuman tarjima haqidagi termin sifatida ham uzoq vaqt qo‘llanilib kelindi. Hozirda esa ko‘proq *yozma tarjimaga* nisbatan qo‘llaniladi. Keyingi so‘z esa, *og‘zaki tarjimani* ifodalaydi. Mazkur so‘z, aslida, nemis tiliga turkiy tillardagi *tilmoch* orqali kirib kelganligi mutaxassislar tomonidan e’tirof etilgan. Shuni ham ta’kidlash kerakki, jahon tarjimashunosligida, xususan, ingliz tilli tarjimashunoslikda keng qo‘llanilib kelinayotgan *translation studies* tushunchasi nemislarda ham *Translation* tarzida qabul qilinganligi va u umuman *tarjima* tushunchasi sifatida e’tirof qilinib kelinayotganligini ham aytib o‘tish joiz.

Tarjima tufayli biz nimaga erisha bo‘lamiz? Tarjimadan kuzatilgan maqsad nima? Umuman olganda, tarjima nima?

- ✓ Tarjima – do‘stlik ilmidir,
- ✓ Tarjima – uzoqni yaqin qiladi,
- ✓ Tarjima – o‘zgani –birodar, tanishni –qadrdon, do‘stni-qqrindosh qiladi.

Tarjima- bir tilda mavjud kitobni boshqa tilga ko‘chirish, undan nusxa ko‘tarish emas, balki, muayyan tilda, yaratilgan san’at asarini bo‘lak tilda, shu ikkinchi tilning leksik-grammatik va badiiy ifodalash vositalari asosida qayta yaratish, qayta tiklash demakdir.

Har bir yangi tarjima-yangi san’at asari degan so‘z. Undan kuzatiladigan maqsad-boshqa halqlarning eng yaxshi badiiy yodgorliklarini “import” qilish, u bilan halqimizni tanishtirish, Qardosh halqlar madaniyatining eng yaxshi fazilatlarini ijodiy o‘zlashtirish, o‘z adabiyotimizda yaratilgan diqqatga loyiq asarlarni boshqa halqlarga “eksport” qilish, ularga taqdim etish vositasi demakdir.

Lekin badiiy tarjimaning o‘ziga xos bir qonuniyati bor: o‘z dilingga yaqin, badiiy ovozingga jo‘r va hamohang, o‘z diddinga muvofiq yozuvchining kitobini ona tilingga o‘tkazganing taqdirdagina chinaka badiiy tarjima yarata olasan. Ikki tilni qanchalik puxta bilgan bilan zo‘rma-zo‘raki qilingan tarjima kutilgan natijani bermaydi.

Masalan, shoir ijodining parda orqasidagi sirlariga yo‘l topish baxti hammaga ham muyaassr bo‘lavermaydi, binobarin, tarjimon bu yo‘lda o‘zini ojiz sezsa-yu, ayni asarni tarjima qilishga kirishmasa-ulug‘ ish qilgan bo‘ladi.

Gyotening mana bu so‘zlari hammaga ma‘lum: “Kimki she‘riyatni tushunishni istasa, poeziya o‘lkasiga ravona bo‘lsin, kimki shoirni tushunishni hohlasa, shoir yashagan o‘lkaga borsin”.

Gyotening bu so‘zlari, shubhasiz, faqat makonga emas, zamonlarga ham safar qilishni taqozo etadi. Bu- shoir yashagan davrni ham o‘rganish zarurligini bildiradi. Tarjimon tarixchi, etnograf, adabiyotshunos, lingvist sifatida juda katta ish olbi borishi kerak.

Tarjimashunoslik fanining amaliy ahamiyati va mustaqilligini ta‘minlashda og‘zaki va yozma tarjima alohida predmet sifatida o‘qitishning alohida ahamiyati bor.

Mashhur nemis olimi Professor M.Shrayberning guvohlik berishicha, nemis tilli hududlarda tarjimashunoslikni mustaqil fan sifatida tahlil qilgan dastlabki tadqiqotlar (lingvistik tahlilning ustivorligiga qaramasdan) 70-yillarning oxirlarida paydo bo‘ldi (Vills, 1977; Koller, 1979). Tarjimashunoslikning “lingvistik kindigi” ning kesilishi 80-yillarga kelib sodir bo‘ldi. Bunda asosan, Skopos nazariyasining o‘rni katta bo‘ldi (Rays/Fermeyer;1984). Mazkur qarashning asosiy mohiyati sof tarjimashunoslikka asoslangan bo‘lsada, unda og‘zaki va yozma tarjima muammolarini faqatgina lingvistika nuqtai nazaridagina echib bo‘lmasligi, balki uning adabiy-madaniy xususiyatlari ham mavjudligi ta‘kidlanadi (1984). Ushbu fanning terminologik atamasi oradan 15 yil vaqt o‘tganidan keyingina Avstriyaning Gras universitetida (Erix Prunch) paydo bo‘ldi.

Chunonchi, 90-yillarning boshlarida og‘zaki tarjimashunoslik (tilmochlik) u yoki bu darajadagi alohida soha hamda tarjimashunoslikning tarkibiy qismi sifatida ko‘rina boshladi.

Tarjimashunoslik fani o'zining alohida yo'nalishiga ega bo'lgan mustaqil fan bo'lishga intilishi keyingi yillarda yanada faollashib bormoqda. Hozirgacha qiyosiy adabiyotshunoslikka asoslangan tarixiy-deskriptiv tadqiqotlar (Lorens, 1996:555) endilikda til va adabiyotshunoslikni o'zaro mujassamlashtirgan *tarjimashunoslik* (nemis tilida *Übersetzungswissenschaft*. Tarj.) nomi bilan atala boshlandi (Grayner, 2004; Albrext, 2005). Nemis tilli hududda terminologik nomuvofiqliklarning saqlanib qolishi og'zaki (Dolmetschen) va yozma (Übersetzung) tarjima haqidagi fanlarning nisbatan yangiligi va o'zaro ajralgan holatda amal qilib kelganligi bilan izohlash mumkin. Lekin shunga qaramay "Handbuch Translation" (Tarjima ma'lumotnomasi) kabi nashrlarning yaratilishi (Snell-Hornbi,1998) Erix Prunch ta'biri bilan aytganda bu sohadagi birlashish tendesiyasining yanada jadallashib borayotganligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, nyemischa otlarni o'zbek tiliga bir necha usullar bilan tarjima qilinishi mumkin. Tarjimada har ikki tildagi otlarning o'zaro muqobil kelishiga e'tibor qaratish lozim. Nemischa-o'zbekcha lug'atlarga nisbatan nemischa ruscha lug'atlar yaratish tajribasi anchagina boyligi bilan ajralib turadi. Shunday bo'lsa ham mustaqillik yillarida nemischa-o'zbekcha lug'atlar yaratish borasida anchagina ishlar amalga oshirildi. O.Raxmonov, A.Baymatov, M.Akbarov, Sh, Karimov, H.J. Arnold, U.Inomovlar tomonidan nemischa-ozbekcha, ozbekcha-nemis lugatlar yaratilgan va ushbu lugatlar oz oquvchilarini topgan. Malumki, barcha tillarda chet tilidan ozlashgan sozlar mavjud. Dunyo tillarida ko'pincha lotin, grek, ingliz, nemis, fransuz, ispan tillaridan boshqa tillarga kirib kelgani internasionalizmlar orfografik va fonetik jihatdan o'zaro muvofiq keladilar. Bunga *sport* so'zini misol keltirish mumkin. Ayni paytda internasionaal so'zlar orasida shundaylari ham borki, ularning soxta ma'nolari domiga tushib qolmaslik kerak. Nemis tilidagi *Qualifizierung* so'zi ayrim hollardagina *kvalifikatsiya*, ko'pincha ko'pincha *yaxshilash, yaxshilanish, tuzalish, takomillashtirish* ma'nolarini ifodalaydi. Tarjimada ana shu jihatga e'tibor qaratish kerak. (Sodikov Z. Asliyat va tarjima matnidagi va'it pragmatikasi to'g'rusida //Zamonaviy Jlingvistik tadqiqotlar va chet tillarni o'qitish didaktikasi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. - Samarqand, 2017. 177-178-b.)

Misol sifatida qo‘yidagi gaplarni tahlil qilib chiqamiz. Ma’lumki, nyemis tilidagi ergashgan qo‘shma gaplar bosh gap va ergash gaplardan iborat bo‘ladi. Bosh gap bilan ergash gap: *bog‘lovchili yoki bog‘lovchisiz bog‘langan qo‘shma gaplarga bo‘linadi.* Bog‘lovchili ergash gapli qo‘shma gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qilishning quyidagi usullari bor:

1. Kesimning tuslanadigan qismi gapning oxirida keladigan ergash gaplarda:

Wir sind sicher, dass wir mit der gemeinsamen Lernen der deutschen Sprache Fortschritte machen können. – Nemis tilini birgalikda organib muvaffaqiyatga erisha olishimizga ihonchimiz komil.

2. Ergash gapdagi kesimning ajraladigan qismi ajralmagan holda gapning oxirida keladi. Uning o‘zbekcha tarjimasida bosh gap kesimi gapning oxiriga o‘tadi.

Wir wissen, dass unsere Erfolge von unserer Arbeit abhängen. – Bizning muvaffaqiyatimizgarovi qilayotgan mehnatimizga bog‘liqligini bilamiz.

3. So‘roq olmoshlari ergash gapning bog‘lovchisi vazifasida keladi va u o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z tarjima qilinadi:

Er weiß nicht, wo er studieren will? – U qaerdan uqishini bilmaydi.

4. Bog‘lovchili qo‘shma gap tarjimada bog‘lovchisiz qo‘shma gap bilan tarjima qilinishi mumkin: (Saidov S. Deutsche Grammatik. Verlag Usbekiston. Taschkent. 2003)

Der zurückgelegte Weg beatätigt, dass der gewählte Kurs richtig ist. –

Bosib o‘tilgan yo‘limizbiz tanlagan yo‘limizning to‘g‘riligini ko‘rsatmoqda.

Xulosa qilib aytganda, tarjimon ham bir qarashda faqat o‘quvchi, talqinchi bo‘lib tuyulishi mumkin. Lekin uning asosiy xususiyati o‘quvchiligi emas, tarjimonligi va undan ham muhimi, ijodkorligi. Biz hammamiz, avvalo. o‘quvchimiz. Lekin o‘quvchilik bu - ishning boshlanishi, xolos. Tarjimon o‘z ona tilida yangi matn yaratuvchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

1. Арзамасева В. Практика перевода по немецкому языку - учебное пособие. Ульяновск: УЛГТУ, 2010. - 123 с.

2. Илюшкина М.Ю. Теория перевода: основные понятия и проблемы – учебное пособие. Екатеринбург: Изд-во Урал. Ун-та, 2015. – 84 с.
3. Содиков З. Новые значения старых слов//Преподавание языка и литературы. – Ташкент, №4, 77-81 б.
4. Содиков З. Аслият ва таржима матнидаги вақт прагматикаси тўғрисида //
5. Замонавий лингвистик тадқиқотлар ва чет тилларни ўқитиш дидактикаси. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. - Самарқанд, 2017. 177-178-б.
6. Саломов Ғ.С. Таржима назарияси асослари. Ўқув қўлланма. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1983
7. Koller Werner Einführung in die Übersetzungswissenschaft. A. Francke Verlag UTB -Tübingen und Basel. 2011, 357 S.
8. Stolze Radegundis. Übersetzungstheorien. Eine Einführung. Narr Verlag. -Tübingen. 2008, 285 S.